

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**MAMARADJABOVA BOG‘ZODA ABDILXAKIMOVNA**

**SHAXS O‘ZINI O‘ZI ANGLASH STRATEGIYASINING  
OILAVIY MUNOSABATLARGA TA‘SIRI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya.  
Shaxs psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy  
(PhD) in psychological sciences**

**Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna**

Shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri .....3

**Мамараджабова Богзода Абдилхакимовна**

Влияния стратегии самосознания личности на семейные отношения .....23

**Mamaradjabova Bogzoda Abdilkhakimovna**

The Influence of personality self-awareness strategy on family relationships .....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....47

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**MAMARADJABOVA BOG‘ZODA ABDILXAKIMOVNA**

**SHAXS O‘ZINI O‘ZI ANGLASH STRATEGIYASINING  
OILAVIY MUNOSABATLARGA TA‘SIRI**

**19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya.  
Shaxs psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P1242 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.psi-ik.uz](http://www.psi-ik.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Umarov Baxriddin Mengboyevich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Shamshetova Anjim Karamiddinovna**  
psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Phd.03/30.01.2020.P.26.02.raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_ -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « \_\_\_\_ » « \_\_\_\_ » kuni tarqatildi.

(2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**F.A. Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**N.B. Atabaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori  
(DSc), professor

**Z.T. Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi  
psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada shaxs o'zini o'zi anglashining oilaviy munosabatlarga ta'sirini o'ziga xos tarzda yoritish psixologiya fanining bugungi kundagi asosiy tushunchasi hisoblanmish shaxsni yaqqol anglash, uning oiladagi roli, shaxslararo o'zini o'zi anglashidagi psixologik munosabatlar ahamiyatini o'rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. «2022-2023-yillardagi ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'pchilik insonlar o'zini anglashlariga ishonsalar ham, faqat 10-15 foizi haqiqatan ham o'zini anglash mezonlariga javob bera oladi»<sup>1</sup>. O'zini o'zi anglash umr bo'yi davom etadigan jarayon bo'lib, shaxsning oiladagi roli va shaxslararo munosabatlardagi psixologik ahamiyatini o'rganish psixologiyaning dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs kamolotini ta'minlashning psixologik mexanizmlari, shaxsning ijtimoiylashuvida shaxslararo munosabatning ta'siriga doir ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining kuchi, uning o'zaro munosabati, «Men timsollari»ning o'ziga xos psixologik jabhalarining o'z-o'zini tushunish, oilaviy munosabatlar, erning rafiqasiga, ayolning turmush o'rtog'iga munosabati, ota-ona bilan farzand munosabatlaridagi nomutanosibliklarni aniqlash orqali shaxsning o'zini o'zi anglash darajasini rivojlantirish orqali oilaviy munosabatlardagi uyg'unliklarni ta'minlashning o'rganilishi zarur bo'lgan masalalar jumlasiga kiradi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirish, aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashishga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish...»<sup>2</sup>. «Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, «Jamiyatda ayollar va bolalarga nisbatan tazyiqsiz va zo'ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish g'oyasini hayotga tatbiq etishda davlat siyosatini yuritish...»<sup>3</sup> tamoyiliga asoslanib, shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasini rivojlantirish orqali insonning o'zini o'zi tushunishi va oilaviy munosabatlarini va shaxs kamoloti hamda oilaning ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini chuqurlashtirishga qaratilgan yangi zamonaviy nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

---

<sup>1</sup> <https://www.annualreviews.org/content/journals/10.1146/annurev-orgpsych-120920-044531>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2022-yil yanvar.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi. 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son.//lex.uz/docs/6600413

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O‘RQ-837-son “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.12.2022-yildagi SQ-682-IV-son 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida, 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.04.2023-yildagi PQ-114-son ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaror hamda faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng qamrovli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sharq mutafakkirlaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Jaloliddin Rumiy, Kaykovus Unsur ul-Maoliy, Yusuf Xos Hojib asarlarida oila, uning ichki hayoti va inson kamoloti masalalari chuqur ilmiy tadqiq etilgan. O‘zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, N.B.Atabayeva, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, B.D.Norqo‘ziyev, A.Sh.Nurmamatov, A.N.Qurbonboyev, S.X.Tadjiyeva, N.T.Ubaydullayev, N.I.Xalilova, E.G‘.G‘oziyev, O‘.B.Shamsiyev, G‘.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, shaxsning o‘zini o‘zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta‘siri masalalari ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida to‘liq o‘rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari pedagog-psixolog olimlaridan T.V.Andreeva, A.N.Antonov, N.Berdyaev, E.V.Galajinskiy, K.Goldshteyn, S.I.Golod, I.A.Idinov, Y.S.Ignatova, A.K.Isaev, I.Kireevskiy, I.S.Kon, L.A.Korostyleva, S.Kovalev, S.I.Kudinov, D.A.Leontyev, N.V.Malyarova, V.G.Maralov, V.Megel, V.I.Morosanova, V.S.Muxina, N.N.Obozev, A.Ovcharov, S.R.Pantelev, N.I.Sardjveladze, V.Y.Semenov, I.M.Sechenov, V.V.Solodnikov, V.V.Stolin, L.V.Tolstova, L.A.Tsyreva, V.N.Ukolova, L.S.Vigotskiy, A.G.Xarchev, A.Xomyakov, G.K.Chernyavskaya, I.I.Chesnokova, Y.I.Shchukina, va boshqalarning ishlarida o‘zini o‘zi anglash jarayoni shaxsning ichki kuchlari va imkoniyatlarini obyektivlashtirishga qaratilgan ijtimoiy-individual jarayon sifatida, o‘z-o‘zini bilish,

o'ziga bo'lgan munosabat, o'zini o'zi baholash, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar orqali shaxsiyatning turli tomonlarining uyg'un rivojlanishi, o'zini o'zi anglashni shaxsning ijodiy kuchlari va imkoniyatlarini faoliyatda ro'yobga chiqarish sifatida ilmiy tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotlarida shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatining kognitiv va hissiy tarkibiy qismlari ajratilgan, o'zini o'zi anglash harakatining vazifalari belgilangan. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilalar mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari, nikoh qurish motivatsiyasi kabi masalalar ham o'rganilgan, ammo shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri muammosi to'liq o'rganilmagan.

Xorij psixolog olimlaridan A.Adams, V.Berg, J.Berkli, R.Berns, S.T.Billingsley, R.Dekart, E.Erikson, E.Fromm, E.Gusserl, D.Jodelet, I.Kant, K.X.Kaufman, K.Kupersmit, G.V.Leybnits, J.Lokk, A.Maslou, K.Mixanovich, K.Rodjers, A.G.Spirkin, M.B.Smit, E.Torndayk, K.Xorni, F.Zimbardo, Z.Freyd, R.Chaldini, L.William va boshqa olimlar o'z tadqiqotlarida shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish, o'z-o'zini amalga oshirish, o'z-o'zini hurmat qilish kabi masalalarni ilmiy tadqiqiy jihatdan o'rganishgan. O'zini o'zi anglashning real «Men» va ideal «Men» orasidagi kombinatsiyasi shaxsning o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Ko'plab olimlar oilaviy munosabatlar bilan bog'liq masalalarni tadqiq etgan bo'lsalar-da, shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini o'rganish va psixokorreksiya qilish masalasi hali ham yetarlicha yoritib berilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Zamonaviy psixologiya sohalarida shaxs xulq-atvori ijtimoiy munosabatlarining ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlari» nomli loyihasi doirasida bajarilgan. (2021-2025 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini ilmiy tadqiq etish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

shaxsning «Men kuchi», «Men timsol»iga ko'ra o'zini o'zi anglash strategiyasini shakllanganlik holatini aniqlash;

o'zini o'zi anglash strategiyasi tizimida shaxsning o'z-o'ziga munosabatining ahamiyatini empirik o'rganish;

shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini empirik yoritish;

shaxs o'zini o'zi anglashining oilaviy munosabatlarga ta'siridagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda psixokorreksiyalash dasturi va tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri muammosi olingan bo'lib, Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetidan 151 nafar, Termiz davlat universitetidan 131 nafar, Urganch davlat universitetidan 127 nafar bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan 1 va

5-bosqich kunduzgi va sirtqi ta'lim yo'nalishlari talabalari tadqiqotga jalb etildi. Respondentlarning umumiy soni 409 nafarni tashkil etdi.

**Tadqiqotning predmetini** shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil, V.V.Stolin va S.R.Panteleevlarning «Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash» metodikasi, S.Xeteuey, J.Makkinlilarning «Shaxsning «Men» kuchini aniqlash» shkalasi, U.Fittsning «Men konsepsiya» shkalasi, B.A.Mamaradjabovanning (mualliflik so'rovnomasi) «Er-xotinlarning o'zini o'zi anglashining oilaviy munosabatlarga ta'siriga doir munosabatlarini o'rganish» so'rovnomasi, Y.Y.Aleshina, L.Y.Gozman, Y.M.Dubovskayalarning «Oiladagi er-xotin muloqot xususiyatlari» so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlik darajasi matematik statistika metodlaridan Manni-Uitni mezon – U, Kruskal Uollis mezon – H, Spirmening korrelyatsiya koeffitsiyenti va Vilkoksonning T-mezonlari orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

shaxsning refleksiv xususiyatlari «shaxsiy Men» va «ijtimoiy Men»ning oilaviy munosabatlar ta'sirida uyg'unlashuviga ko'ra «Men» kuchi yuqori shaxslarni o'z-o'zini anglashida tanqidiylik, xatti-harakat va xulq-atvorni taftish qiluvchanlik, o'zidan mamnunlik, kamchiliklariga nisbatan xolislik va tahlilchanlikni kuchaytirishi isbotlangan;

shaxsning ontogenetik rivojlanish bosqichlaridagi refleksiv xususiyatlar o'z-o'ziga ishonch va o'z-o'ziga munosabat o'z-o'zini anglash strategiyasini tavsiflovchilar sifatida namoyon bo'lishi «Men» kuchi ta'siriga bog'liqligi tufayli o'z-o'zini idora qilish, ichki ziddiyat va o'z-o'zini ayblash o'z-o'zini anglashni differensatsiyalovchi o'z-o'ziga munosabat xususiyatlari orqali namoyon bo'lishi aniqlangan;

shaxsning o'z-o'zini anglashida samimiylilik, o'zini qabul qiluvchanlik, «oilaviy Men», muloqotdagi «psixoterapevtik» xususiyatlarining tarkib topishi tufayli er-xotinlar qarashlaridagi moslik farzandlarga e'tiborlilik va oilaning umumiy simvollarini (yaxshi sevgi-muhabbat, ishonch va sadoqat, oilaviy an'analar, oilaviy tadbirlar, er-xotinning bir-biriga sadoqati) ta'minlovchi psixologik omil ekanligi dalillangan;

o'z-o'ziga e'tibor qaratish va nazorat qilish, o'zini shaxsiy timsolini shakllanishi bilan bog'liq jihatlarga ko'ra muloqotda his-tuyg'ularni anglash va tartibga solish, tafakkur tarzi, muloqot qilishni o'rganish, ijtimoiy muhit va insonlar orasida faollikning yuqori bo'lishi muhimligi tufayli shaxsning o'z-o'zini anglash strategiyasiga psixoeduktiv ta'sir etish orqali oilaviy munosabatlarda ijtimoiy rollarni barqarorlashtirish mumkinligi tasdiqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

o'zini o'zi anglash strategiyasi psixodiagnostikasini ta'minlashga yo'naltirilgan «Shaxsning «Men» kuchini aniqlash» shkalasi va «Men konsepsiya» shkalasining qulay va samarali usuli sifatida o'zbek muhitiga moslashtirilgan shakllari zarur

diagnostika vositalari sifatida taqdim etilgan;

shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Shaxsning o'zini o'zi anglashini psixokorreksiyalash dasturi" ishlab chiqilgan;

"O'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini optimallashtirishni tashkil etish» modeli taklif etilgan;

shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini kuchaytirishga oid taklif va tavsiyalar aholining turli yosh bosqichlarida qo'llash uchun ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot tanlanmalarining psixometrik mezonlarga muvofiq shakllantirilganligi, ilmiy tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, metodikalarning validligi va ishonchliligi, empirik ko'rsatkichlarni matematik-statistikaning ishonchli usullari va mezonlariga muvofiq aniqlanganligi, empirik ko'rsatkichlarning «IBM SPSS 2020» dasturlari yordamida statistik mezonlar bo'yicha asoslanganligi, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** O'zbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlarda shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini empirik jihatdan tahlil qilish, shuningdek, shaxsning o'zini o'zi anglashi va oilaviy munosabatlardagi psixologik muammolarni bartaraf etish uchun psixokorreksion chora-tadbirlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya hamda oila psixologiyasi fanlari yo'nalishlarida oila muhitida shaxs o'zini o'zi anglashi, oilaviy munosabatlarda o'zini o'zi namoyon qilishi, o'zini o'zi anglash xususiyatlari, jumladan samimiylik, o'z-o'ziga munosabat, o'z-o'zini idora qilish, o'ziga ishonch, shaxs o'z-o'zini qadrlashi, o'z-o'zini ayblash jarayonlari, o'zini o'zi anglashdagi psixologik holatlar o'rganilgan va tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot muammoga oid ilmiy tushuncha va tasavvurlarni kengaytirishda samarali bo'lib, shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va amaliy tavsiyalar jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar, pedagoglar, psixologik va ijtimoiy sohalarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan keng foydalanilishi mumkinligi belgilandi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

refleksiyaning shakllantirish hisobiga «shaxsiy Men» va «ijtimoiy Men»ning uyg'unlashuviga erishish «Men» kuchi yuqori shaxslarni o'z-o'zini anglashida tanqidiylik, xatti-harakat va xulq-atvorni taftish qiluvchanlik, o'zidan mamnunlik, o'z kamchiliklariga nisbatan xolislik hamda tahlilchanlikni kuchaytirishi isbotlanganligiga doir ilmiy taklif-tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda №-IIM-274-sonli buyrug'iga asosan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda

№-ПМ-274-а-сон ма’lumotnomasi). Natijada, o‘tkazilgan o‘quv kurslarida shaxsning o‘z-o‘zini anglash strategiyasi haqida ma’lumot berishga erishilgan;

shaxsning ontogenetik rivojlanish bosqichlarida o‘z-o‘ziga ishonch va o‘z-o‘ziga munosabat o‘z-o‘zini anglash strategiyasini tavsiflovchilar sifatida namoyon bo‘lganda «Men» kuchi ta’sirida o‘z-o‘zini idora qilish, ichki ziddiyat va o‘z-o‘zini ayblash o‘z-o‘zini anglashning differentsiyalovchi o‘z-o‘ziga munosabat xususiyatlari ekanligi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda №-ПМ-274-sonli buyrug‘iga asosan «Shaxs psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda №-ПМ-274-а-сон ма’lumotnomasi). Buning natijasida modulga kiritilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda, shaxs o‘z-o‘zini anglash strategiyasida Men kuchi, Men timsoli va o‘ziga munosabati muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan;

shaxsning o‘z-o‘zini anglashida samimiylik, o‘zini qabul qiluvchanlik, «oilaviy Men», muloqotdagi «psixoterapevtik» xususiyatlarining tarkib topishi er-xotinlar qarashlarida moslikni ta’minlashi hisobidan farzandlarga e’tiborlik va oilaning umumiy simvollarini (yaxshi sevgi-muhabbat, ishonch va sadoqat, oilaviy an’analar, oilaviy tadbirlar, er-xotinning bir-biriga sadoqati) ta’minlovchi psixologik jihatlar ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda №-ПМ-274-sonli buyrug‘iga asosan «Umumiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda №-ПМ-274-а-сон ма’lumotnomasi). Natijada, kurs tinglovchilariga shaxsning o‘z-o‘zini anglashning oilaviy munosabatlarga ta’siri haqida ma’lumot berishga xizmat qilgan;

o‘z-o‘ziga e’tibor qaratish va o‘zini nazorat qilish, o‘zining shaxsiy timsolini shakllantirishi, his-tuyg‘ularini anglash va tartibga solish, o‘z tafakkur tarzi, muloqot qilishni o‘rganish, ijtimoiy muhit va insonlar orasida faollik shaxs o‘zini o‘zi anglash strategiyasini psixokorreksiyalashning muhim tarkibiy jihatlari ekanligi empirik tasdiqlanganligiga oid taklif va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda №-ПМ-274-sonli buyrug‘iga asosan «Psixologik korreksiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 10-dekabrda №-ПМ-274-а-сон ма’lumotnomasi). Natijada, kurs tinglovchilarida o‘z-o‘zini anglashni psixokorreksiyalash bo‘yicha treninglar tashkil etish bo‘yicha tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari respublika miqyosidagi 8 ta va xalqaro darajadagi 3 ta ilmiy-amaliy konferensiya anjumanlarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha 24 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shu jumladan, 7 ta xorijiy jurnallarda, 6 tasi ingliz

tilida, 1 tasi rus tilida chop etilgan. Tadqiqot natijalari bo'yicha 1 ta model, 1 ta psixokorreksion trening dasturi yaratilgan hamda Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk Agentligining jami 2 ta guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi jami ilovalarsiz 138 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri muammosining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bob mazmuni uchta paragrafda yoritilgan. Bobning «Psixologiya fanida shaxs va uning o'zini o'zi anglashi muammosining nazariy jihatdan yoritilishi» nomli paragrafida o'zini o'zi anglash strategiyasi muammosining ilk ildizlari, uning fanlar tizimida, xususan, falsafiy asoslariga bag'ishlangan ilmiy natijalari sharhi keltirilgan. O'zini o'zi anglash muammosining genezisida ham falsafiy, ham psixologik mazmun aks etganligi mualliflarning ilmiy qarashlarida o'z aksini topgan. Bu holat ham Sharq allomalari, ham G'arb mutafakkirlarining o'zini o'zi anglashga bag'ishlangan asarlarida mujassamlashgan. Shu sababli ham o'zini o'zi anglash G'arb faylasuflari Suqrot, Geraklit, Platon, Sharq allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Kaykovus Unsur ul-Maoliy, Jaloliddin Rumiylar asarlari misolida yoritilgan. O'zini o'zi anglash muammosining keyingi davrida Yevropa falsafasida R.Dekart va J.Lokk, G.V.Leybnits, J.Berkli, I.Kant ijodining o'ziga xos bir ko'rinishi tarzda bayon etilgan.

Keyinchalik U.Jeyms o'zini o'zi anglash muammosini «Men-konsepsiya» nuqtai nazaridan ishlab chiqishni boshlagan birinchi psixolog hisoblansa-da, o'zini o'zi anglash nazariyasi «O'zini o'zi anglash» nuqtai nazaridan keyingi rivojlanishi ramziy interaksionizm vakillari Ch.Kuli va D.Midlar ilmiy ijodining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, paragrafda o'zini o'zi anglash zamonaviy psixologiyada E.Erikson, B.G.Ananev, I.S.Kon, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, E.T.Sokolova, A.G.Spirkin, I.I.Chesnokova va boshqalar tomonidan chuqur ilmiy talqin etilganligi bayoni keltirilgan.

Bobning «Shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sir bo'yicha xorijiy va o'zbek psixologlarining ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili» nomli paragrafida esa o'zini o'zi anglash strategiyasini bevosita shaxsning oilaviy munosabatlariga ta'siriga bag'ishlangan tadqiqotlar sharhi o'rin olgan. Mazkur holatda

vatanimiz olimlari Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev va boshqalarning tadqiqot ishlarida shaxs masalasi, uning ijtimoiylashuvi, o'zligini angalashida inson psixikasi, qobiliyatlari, ijodiy faolligi, oila muhiti, ota-ona munosabatlari, farzandlar o'rtasida shakllangan qadriyatlar tizimi hamda A.N.Qurbonboyev, D.B.Norqo'ziyev, D.U.Abdullayeva, N.B.Atabayeva, N.I.Xalilova, N.T.Ubaydullayev, S.X.Tadjiyeva, O'.B.Shamsiyev, A.Sh.Nurmamatovlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil hamdo'stlik mamlakat vakillari Y.V.Titova, L.A.Korostleva, V.M.Darinskaya, B.F.Chechet, E.A.Zubkova, M.R.Plotniskaya, K.G.Gerasimova, E.V.Stolyarkayalarning zamonaviy tadqiqotlari ilmiy xulosalari talqiniga bag'ishlangan. Ularda shaxsning o'zini o'zi anglash jarayonida gender identifikatorlarning roli, o'zini o'zi anglash strategiyalarining nazariy modeli, «o'z-o'zini boshqarish» omili bilan bog'liq, shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining tarkibiy qismi asosi sifatida ijodiy xususiyatlari o'rganilganligi qayd etilgan.

Xorijiy psixologiyada bir qator tadqiqotlar shaxs o'zini o'zi anglashining munosabatlarga ta'siri masalasi J.Carden, D.Chon, S.Sitkin, T.Eurich izlanishlari asosida o'zini o'zi anglash ta'rifi bir necha jihatdan kontseptuallashtirilgan.

«Zamonaviy psixologiya fanida shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri muammosi» nomli paragrafda esa o'zini o'zi anglashni shaxsning o'zi haqidagi barcha g'oyalari yig'indisi sifatida tushunilishi, o'zini o'zi anglash – bu insonning o'z harakatlari va natijalarini bilishi va baholashi, fikrlari, his-tuyg'ulari, axloqiy xarakteri va manfaatlari, ideallari va xatti-harakatlari motivlari, o'zini va hayotdagi o'rnini har tomonlama baholanishi to'g'risidagi izohlariga bag'ishlangan tadqiqotlar mazmuni o'rin olgan. T.M.Mishina, I.A.Razumova, A.A.Rean, O.A.Karabanova tadqiqotlarida oilaviy o'zini o'zi anglash dunyoqarash, motivlar, odatlar, an'analarni o'z ichiga olgan integral ijtimoiy-psixologik xususiyati, oilaviy o'zini o'zi anglashga xos modelini ishlab chiqilganligi haqidagi ilmiy xulosalari tahlili o'rin olgan.

Dissertatsiyaning **«Shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining tarkibiy komponentlarining psixologik xususiyatlari diagnostikasi natijalari talqini»** bobi tadqiqotning tashkil etish xususiyatlari, tadqiqot metodikalari sharhi hamda ularni tatbiq etishdan olingan ilmiy empirik qiymatlar tahliliga bag'ishlangan.

«Shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasini tadqiq etish psixodiagnostik metodikalari tavsifi va ularni tatbiq etishning empirik ko'rsatkichlari» paragrafida shaxs o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'siri masalasini tadqiq etish muammosi tahlilini amalga oshirishda ikki jihatni inobatga olish ko'zda tutilgan. Shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining empirik tahlilida psixologik kategoriyaning tarkibiy tuzilmasiga tayanmasdan yechim topib bo'lmaydi. Shunga ko'ra tadqiqot empirik ko'rsatkichlarining birinchi bosqichida shaxsning o'zini o'zi anglashini asosiy tarkibiy komponenti «Men-konsepsiyasi»ning tahliliga murojaat qilishga to'g'ri kelmoqda. Buning uchun U.Fittsning «Men konsepsiya» shkalasiga tayanildi. Empirik ko'rsatkichlar navbatda 1-jadvalda keltirilgan.

Sinaluvchilarning o'zini o'zi anglash tizimida o'zini o'zi tanqid qilish muhim hisoblanmoqda. Men kuchi yuqori bo'lgan shaxslar (250,59) o'z-o'ziga tanqidiylik

«Men kuchi» quyi (190.11) va «Men kuchi» oʻrtacha (200,72) shaxslarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi ( $H=7.096$ ;  $p\leq 0,01$ ). Empirik koʻrsatkichlarga asoslanib, oʻzini oʻz tanqid qilish bilan «Men kuchi» oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik bor ekan.

1-jadval

**Shaxs «Men-konsepsiyasi»ning oʻzini oʻzi anglash tizimidagi empirik koʻrsatkichlari  
(Kruskal-Uolles mezoni)**

Shkalalar	Oʻrtacha rang			H	p
	Men kuchi quyi, N=116	Men kuchi oʻrta, N=258	Men kuchi yuqori, N=35		
Oʻz-oʻziga tanqidiylik	190.11	200.72	250.59	7.096	0.009*
Oʻz-oʻzidan qoniqqanlik	191.92	207.32	231.24	6.272	0.015*
Xulq-atvor	198.35	210.78	184.44	2.057	0.358
Jismoniy Men	199.2	206.37	214.14	0.528	0.768
Axloqiy Men	204.79	201.58	230.9	1.912	0.384
Shaxsiy Men	205.04	203.85	273.36	8.201	0.004**
Oilaviy Men	203.12	203.56	221.84	0.785	0.675
Ijtimoiy Men	197.82	205.92	261.99	5.178	0.021*

Izoh: \*- $p\leq 0,05$ ; \*\*- $p\leq 0,01$ ;

Demak, oʻzini oʻzi anglashda shaxsning oʻzini tanqid qilishi, xatti-harakat va xulq-atvorini doimiy ravishda taftish qilish, kamchiliklariga nisbatan xolislik va tahlilchanlik xos. Ular oʻzlarini kamchiliklarini bartaraf etishgan va atrofdagilarning munosabatiga nisbatan refleksiyaning shakllantirishga olganlar. Bu esa quyi Men kuchiga ega boʻlganlar, har doim ham oʻzlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qabul qila olmasligini, xulq-atvor va xatti-harakatlarini nazorat qilishda internallik yetishmasligini anglatadi.

Empirik koʻrsatkichlardan oʻz-oʻzidan mamnunlik shkalasi boʻyicha sinalluvchilarning toifasi boʻyicha statistik tafovutlar aniqlandi. Ulardan Men kuchi yuqori (231,24) boʻlgan shaxslar oʻzini oʻzi tanqid qilishdagi ustuvorlik oʻz-oʻzidan mamnunlikni toʻldirishi va boyitgan boʻlishi mumkin. Ular Men kuchi quyi (191,22) va Men kuchi oʻrtacha (207,32) shaxslardan farqli qiymatlarga egadirlar ( $H=6.272$ ;  $p\leq 0,05$ ). Empirik qiymatlarning sifat tahlili oʻzining xatti-harakati va xulq-atvorini anglagan holda, tanqidiy tahlilga ega shaxslar oxir-oqibat oʻzlaridan mamnun boʻlishlari hamda oʻz xatti-harakatlari va xulq-atvoridan qoniqqanliklarini yaqqol aks ettirishga xayrixohdirlar.

Bobda shaxsning «Men-konsepsiyasi»ni shaxsning oʻzini oʻzi anglash tizimidagi jinsga hududiy, yoshga oid empirik koʻrsatkichlar ham oʻrin olgan. 2-jadvalda shaxs Men-konsepsiyasi komponentlarini oʻzini oʻzi anglash tizimida shakllanganlik holatini korrelyatsiyali tahlili amalga oshirildi.

Korrelyatsiyali tahlilga koʻra shaxslar oʻz-oʻzining xulq-atvori, his-tuygʻulari, fikrlari va munosabatlariga tanqidiy yondashish oqibatida tahlil qilish qobiliyatini oʻstirishi kundalik turmushda oʻzidan, faoliyatidan va atrofdagilar bilan oʻzaro munosabatidan qoniqishi mumkinligi ( $r=0.316$ ,  $p\leq 0,01$ ), oʻzini xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini atrofdagilarning munosabatlariga moslashtirishi ( $r=0.316$ ,  $p\leq 0,01$ ) va hattoki etikaviy-estetik talablarga mos ravishda oʻzining tashqi qiyofasini ham tartibli

tarzda namoyon etishga xayrixohligini rivojlanib borishiga e'tiborlilikni ( $r=0.362$ ,  $p \leq 0,01$ ) kuchayib borishiga olib kelmoqda.

O'z navbatida shaxsiy «Men»idagi o'ziga xoslik so'zsiz shaxsning oilaviy ( $r=0.437$ ,  $p \leq 0,01$ ) va ijtimoiy munosabalaridagi ( $r=0.354$ ,  $p \leq 0,01$ ) xayrixohligini belgilab beradi. Demak, shaxs o'zini anglashi hisobida turmush tarzini tartiblashi va sotsial munosabatlarda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlamoqda.

### 2-jadval

#### Shaxsning «Men-konsepsiyasi» komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar (Ch.Spirmen korrelyatsiyasi usuli asosida)

Shkalalar	O'z-o'ziga tanqidiylik	O'z-o'zidan mamnunlik	Xulq-atvor	Jismoniy Men	Axloqiy Men	Shaxsiy Men	Oilaviy Men	Ijtimoiy Men
O'z-o'ziga tanqidiylik	1	0.316**	0.362**	0.253**	-0.001	0.024	0.017	-0.022
O'z-o'zidan mamnunlik		1	0.182**	0.304**	0.066	0.059	0.071	0.000
Xulq-atvor			1	0.440**	0.018	0.072	0.019	0.008
Jismoniy Men				1	0.022	0.039	0.062	0.038
Axloqiy Men					1	0.568**	0.387**	0.342**
Shaxsiy Men						1	0.437**	0.354**
Oilaviy Men							1	0.440**
Ijtimoiy Men								1

Izoh: \*- $p \leq 0,05$ ; \*\*- $p \leq 0,01$ .

Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini tadqiq etishda V.V.Stolin va S.R.Panteleevning «Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash» so'rovnomasidan foydalanildi. Quyida tadqiqot obyektlarining o'z-o'ziga munosabatini jins, hudud, ontogenetik rivojlanish va «Men» kuchiga ko'ra toifalash asosida olingan empirik natijalar tahliliga bag'ishlanadi. Dastlab, shaxslarning o'z-o'ziga munosabatini yosh ko'rsatkichi bilan bog'liq ifodalanishiga bag'ishlangan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval

#### Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini ontogenetik taraqqiyot bosqichlariga ko'ra o'rganish yuzasidan empirik ko'rsatkichlari (Kruskal-Uollis mezon)

Shkalalar	O'rtacha rang			H	p
	O'spirinlar N=116	Yoshlar N=258	Yetuklik yoshidagi talabalar N=35		
Samimiylik	218.35	192.44	204.12	3.412	0.182
O'z-o'ziga ishonch	229.50	201.58	184.21	10.427	0.005**
O'z-o'zini idora qilish	200.82	192.97	219.51	3.818	0.148
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	178.04	205.83	230.76	14.24	0.001**
O'z-o'zini qadrlash	212.80	201.14	199.67	1.042	0.594
O'z-o'zini qabul qilish	219.91	198.50	196.67	3.372	0.185
Mahdudlik	211.79	192.43	207.75	2.096	0.351
Ichki ziddiyat	210.93	210.05	194.21	1.825	0.402
O'z-o'zini ayblash	215.94	204.12	195.08	2.185	0.335

Izoh: \*- $p \leq 0,05$ ; \*\*- $p \leq 0,01$ ;

O'z-o'ziga ishonch shkalasi bo'yicha o'spirinlar yoshlar va yetuklik yoshidagi talabalarga nisbatan yuqoriroq va statistik tafovutli qiymatga ega bo'ldi (229,50 (o'spirinlar); 201,58 (yoshlar); 184,21 (yetuklik yoshidagi talabalar),  $H=10.424$ ;  $p \leq 0,01$ ). Bu o'spirinlardagi yoshga xos optimizmning va istiqbolga nisbatan ishonchning yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, miqdoriy qiymatlarning sifat ifodasiga ko'ra, o'spirinlar atrofdagilar tomonidan o'zini e'tirof etilishini istashar ekan. Ular o'zini boshqalar yoqtirishini, shaxs va ma'naviy sifatli inson sifatida qadrlashlarini, guruhiy me'yorlar va qoidalarga sodiqligi uchun xatti-harakati va xulq-atvori bilan yoqishga intilishlarini bildiradi. O'spirinlar hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun muloqotmand, atrofdagilar bilan o'zaro ta'sirlashuvda emotsional ochiq, ish va shaxsiy masalalar yuzasidan munosabatlarga oson kirishuvchan va juda kirishimli bo'lish kerakligini anglab yetganlar.

Yetuklik yoshidagi talabalarining o'z-o'ziga munosabatining aks etishi yetakchi xususiyat sifatida namoyon bo'ldi (178,04 (o'spirinlar); 205,83 (yoshlar); 230,76 (yetuklik yoshidagi talabalar),  $H=14.24$ ;  $p \leq 0,01$ ). Yetuklik yoshidagi talabalarining o'z-o'ziga munosabatining yuqori me'yorda ifodalanishi ularga atrofdagilar ijobiy munosabatda ekanligini anglatadi. Yetuklik yoshidagi talabalar o'zlarini boshqalarning yoqtirishini, shaxsiy va ma'naviy sifatleri, xatti-harakati va amalga oshirgan ishlari, axloqiy me'yor va qoidalarga amal qilganini qadrlashini his etadi. Ularning yutuqlari muloqotmand, ko'ngli ochiq, ish bilan bog'liq va shaxsiy munosabatlarda kirishimli insonlar ekanligidir.

Shaxsning o'zini o'zi anglash strategiyasining oilaviy munosabatlarga ta'sirini empirik tahlil etishda «Oiladagi er-xotin muloqot xususiyatlari» so'rovnomasi (Y.Y.Aleshina, L.Y.Gozman, Y.M.Dubovskaya)dan foydalanildi. 4-jadvalda navbatdagi empirik ko'rsatkichlarni tahlili er-xotin o'rtasidagi muloqot xususiyatlarini o'rganish natijalari berilgan.

4-jadval

**Er-xotin o'rtasidagi muloqot xususiyatlarining jinsga ko'ra ko'rsatkichlari  
(Mann-Uitni mezon)**

Shkalalar	O'rtacha rang		U	p
	Ayollar N=284	Erkaklar N=125		
O'ziga munosabat	212.12	188.83	15728.5	0.019*
Turmush o'rtog'iga (rafiqasi) munosabat	200.11	216.11	16361	0.026*
O'zini o'zi tushunishi	207.59	199.12	17015	0.538
Turmush o'rtog'ini (rafiqasini) tushunishi	203.65	208.08	17365.5	0.086
Turmush o'rtog'larining qarashlaridagi mos kelishlik	210.70	192.06	16132.5	0.000**
Oilaning umumiy simvollar	219.01	173.17	13771	0.000**
Turmush o'rtog'larining muloqotini qulayligi	207.73	198.79	16974	0.276
Muloqotdagi «psixoterapevtlik»	206.60	201.36	17294.5	0.518

Izoh: \*- $p \leq 0,05$ ; \*\*- $p \leq 0,01$

Empirik ko'rsatkichlar muhokama qilinganda oiladagi munosabatlarda er-xotinlarning o'ziga munosabatidagi jinsga oid tafovutlar bir qator jihatlarda kuzatildi.

O'ziga munosabatda ayollar (212,12) anchagina mas'uliyat bilan yondashishda erkaklarga (188,83) qaraganda oilaviy munosabatlarda anchagina ishonchli munosabatni ifodaladilar ( $U=15728,5$ ;  $p\leq 0.05$ ). Bundan ko'rinadiki, ayollar oilaviy munosabatlarda turmush o'rtoqlari bilan munosabatda o'zini o'zi tanqid qilishdan ko'ra ishonchli munosabatda bo'lishni yoqlamoqdalar.

Turmush o'rtoqlarning bir-biriga munosabatida esa erkaklar (216,11) ayollarga (200,11) nisbatan rafiqalariga ko'proq talablar qo'yishga xayrixoh ekanlar ( $U=16361$ ;  $p\leq 0.05$ ). O'z navbatida er-xotinlar muloqot jarayonida ko'proq umumiy umidlar va munosabatlarga ega ekanlar. Muloqot orqali er-xotinlar doimo atrofdagi dunyoga va odamlarga nisbatan o'xshashliklarini his qilishga intilar ekanlar. Turmush o'rtoqlarining qarashlaridagi moslik shkalasida ham ayollar (210,70) bilan erkaklarning (192,06) munosabatlarida tafovutlar aniqlandi ( $U=16132,5$ ;  $p\leq 0.01$ ). Bu esa er-xotinlar o'rtasidagi shaxslararo muloqotchanlik tez-tez muvaffaqiyatli bo'lsa, umuman ularning shaxslararo munosabatlari shunchalik yaxshi bo'ladi. Natijada, baxtli juftliklar ko'pincha suhbatlarni «xolis va samimiy», ishonchli deb baholaydilar, bu ular uchun birlik va o'zaro tushunishning aniq dalilidir. Demak ayollar, turmush o'rtoqlarini o'zlarining qarashlariga mos bo'lishlariga nisbatan talabchandirlar.

Shaxsning o'zini o'zi anglashi bilan oilaviy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni talqin etuvchi navbatdagi korrelyatsiyali bog'lanishlar 5-jadvalda keltirildi.

#### 5-jadval

#### Shaxsning Men-konsepsiyasi bilan oilaviy munosabatlari (er-xotin) o'rtasidagi korrelyatsiyali ko'rsatkichlar

Shkalalar	O'ziga munosabat	Turmush o'rtog'iga munosabat	O'z-o'zini tushunish	Turmush o'rtog'ini tushunish	Turmush o'rtog'larining qarashlaridagi mos kelishlik	Oilaning umumiy simvollar	Turmush o'rtog'larining muloqotini qulqiligi	Muloqotdagi «psixoterapevtlik»
O'z-o'ziga tanqidiylik	-0.034	0.025	-0.005	-0.021	-0.019	0.098*	0.087	0.043
O'z-o'zidan qoniqqanlik	-0.042	-0.036	-0.009	-0.031	-0.072	0.038	-0.013	0.008
Xulq-atvor	-0.058	0.013	-0.011	0.006	-0.057	0.002	-0.039	0.017
Jismoniy Men	0.048	0.066	0.011	0.015	0.048	0.001	0.010	0.025
Axloqiy Men	-0.021	-0.080	-0.095	-0.058	0.057	0.049	0.029	0.023
Shaxsiy Men	-0.046	-0.023	-0.014	0.015	-0.001	0.049	0.004	0.018
Oilaviy Men	-0.045	-0.074	0.011	-0.004	0.161**	0.052	0.089	0.001
Ijtimoiy Men	-0.057	-0.002	-0.039	0.042	0.036	-0.032	0.015	0.004

Izoh: \*- $p\leq 0,05$ ;\*\*- $p\leq 0,01$

Korrelyatsiyali holatdan shaxs o'zini o'zi anglashida o'z-o'ziga tanqidiylikni ustunligiga erishishiga olib keladigan bo'lsa ( $r=0.098$ ;  $p\leq 0,05$ ), u holda oilaning umumiy simvollarini mustakahmlanishiga, yaxshi sevgi-muhabbat, ishonch va sadoqat, oilaviy an'analar, oilaviy tadbirlar, er-xotinning bir-biriga sadoqati va boshqa simvollarini aks etishida kuzatiladi.

Shuningdek, shaxslarning Men-konsepsiyasining oilaviy Men jabhasidagi ijobiy o'sish turmush o'rtoqlarning qarashlari bilan ijobiy bog'lanish hosil qilishi asosida ( $r=0.161$ ;  $p\leq 0,01$ ), er-xotinlar munosabatlarining mosligini ta'minlashi, bir birini

qarashlaridan tushunishi va qabul qilishi mustahkamlanib borar ekan. Biroq ushbu yo'nalishda Men-konsepsiyasi bilan oilaviy munosabatlarning boshqa jihatlarida ichki bog'liqlik kuzatilmadi.

